



O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA IJODKOR AYOLLAR

Termiz davlat universiteti akademik litseyi

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Jo'rayeva Nargiza Tilovmurodovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek mumtoz adabiyotida ijodkor ayollarning o'zni haqida ma'lumot berilgan. shoiralarning ijodi to'liq yoritilgan. Lirik tahlil bo'lgan.

Kalit so'z : Shoir, lirika, mumtoz, g'azal, saroy, ijod, davron, chiston, misra

O'zbek mumtoz adabiyotida shoir ayollarni o'zni beqiyos. O'z davrining mashhur qalam tebratgan ayollaridan o'zbek va fors tillarida barakali ijod qilgan, Nodirabegim, Jahon Otin Uvaysiy, Dilshodi Barno, Anbar Otin kabi shoiralarning serko'lam lirikasi mumtoz adabiyotda o'z o'rniga ega. Ularning turmush tarzi har xil bo'lsa-da, ijodlarida muayyan badiiy-g'oyaviy mushtaraklikni kuzatish mumkin. Nodirabegim saroy malikasi bo'lsa ham davrning adolatsizliklariga befarq emasdi, turmush o'rtog'i Umarxonga yaxshi maslakdosh bo'lib, hukmdorni adolatli, rahm-shafqatli bo'lishga, xalq tashvishi bilan yashashga chaqirar edi:

Fuqaro holig'a gar boqmasa har shoh, anga

Hashmat-u saltanat-u raf'at-u shon barcha abas.

Shoh uldurki, raiyatga tarahhum qilsa,

Yo'q esa qoidayi amn-u omon barcha abas.

Davr ijtimoiy muhitini tanqid qilish motivi, zamondoshlarining dardchil kechinmalari, qayg'usi Jahon otin Uvaysiy ijodida ham aks etgan:

Zamona kulfatidin bu ko'ngil dog' o'ldi, dog' o'ldi,



**Bu charxi bemuruvvatdin ko'ngil dog' o'ldi, dog' o'ldi.
Jarohat bo'ldi bag'rim tig'i bedodi raqiblardin,
Bu ko'tohfahm mardumdin ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi.**

Dilshodi Barno she'rlarida ham davrdagi og'ir ijtimoiy turmush, qonli urushlar, afgor xalq hayoti ifodasini kuzatish mumkin:

**Vasvos ila shohni ayladi ag'mo urush,
Shohni shahanshoh qilishg'a ayladi da'vo urush.
Ko'nglig'a g'ulg'ula soldi ne o'yinlar ko'rguzub,
Qon ichish ishtahasin ayladi a'lo urush.**

Ishq, muhabbat, sadoqat, vafo, visol, hijron, e'tiqod, dunyo, ilohiyot, erk, ona va farzand munosabatlari kabi mavzular XIX asrda Qo'qonda yashab ijod etgan ayol shoirlar ijodining muhim g'oyaviy yo'nalishlari hisoblanadi:

**Fig'onkim, gardishi davron ayirdi shahsuvorimdin,
G'amim ko'p, ey ko'ngul, sen bexabarsen holi zorimdin.
G'uborim ishq vodiysida barbod o'ldi andog'kim,
Biyobonlarda Majnun to'tiyo izlar g'uborimdin. (Nodira)**

Uvaysiy o'z farzandiga atab yozgan "Sog'indim" radifli g'azalida farzandini sog'ingan, sog'inchdan g'am-g'ussaga botgan, dard-u alam chekayotgan, diydorlashishga umidvor bo'lgan onaizor timsolini gavdalantirgan:

**Bu kun, ey do'stlar, farzandi jononimni sog'indim,
Gado bo'lsam ne ayb, ul shohi davronimni sog'indim.
Qorong'u bo'ldi olam ko'zima ushbu judolikdin,
Ko'z-u ko'nglum ziyosi mohi tobonimni sog'indim.**

Shu bilan birga, umri qayg'u va hasratdan iborat bo'lgan, erki, huquqi toptalgan, zulm-u sitamlar girdobida qolgan davr ayollari timsoli ham o'zbek shoirlari lirikasining asosiy mazmunini tashkil etadi. Xususan, chiston janrida Alisher Navoiydan keyin eng ko'p va xo'b yozgan o'zbek shoirlaridan biri



Uvaysiy “Anor” she’ri (chistoni) orqali hurligidan ayrilgan, bag’ri qon ayollarning ayanchli qismatini ifodalasa, Dilshodi Barno qizlarni o’zlari orzu qilgan “osoyish zamon”ni chorlashga chaqiradi:

**Ul na gumbazdur, eshig-u tuynugidin yo‘q nishon,
Necha gulgunpo‘sh qizlar manzil aylabdur, makon?
Sindirib gumbazni qizlar holidin olsam xabar,
Yuzlariga parda tortig‘liq turarlar bag’ri qon. (Uvaysiy)**

**Keling, qizlar, chalaylik daf ila soz,
Bir osoyish zamonni chorlaylik boz.
Diyorimizni ta’rif aylamakka
Hamma maqsadni birga aylaylik soz. (Dilshodi Barno)**

Xulosa qilib aytish mumkinki, XIX asrda yashab ijod etgan Nodira, Uvaysiy, Anbar Otin, Dilshodi Barno kabi ayol ijodkorlarning o‘zbek va fors tillaridagi adabiy merosi milliy so‘z san’atining go‘zal sahifalarini tashkil etadi. Ular shaxsiyatidagi vafodorlik, odamiylik, poklik, sadoqat tuyg‘ularini ijodida ham aks ettirib, haqiqiy o‘zbek ayolining ma’naviy qiyofasini, o‘ziga xos siymosini yaratdilar va xalq hurmatiga sazovor bo‘ldilar.

Yuksak badiiy iste’dod sohibasi bo‘lgan Mohlaroyim Nodira 1792-yilda Andijon hokimi Rahmonqulibiy oilasida tug‘ilgan. Nodiraning onasi -- Oyshabegim qizining tarbiyasi bilan astoydil shug‘ullangan. Nodira dastlab otin oyi qo‘lida ta’lim oladi, xususiy mutolaa bilan shug‘ullanadi, keyinchalik she’rlar mashq qilib , shoira sifatida taniladi. Nodira ham iste’dodli shoira, ham madaniyat va adabiyotning homiylaridan biri sifatida ajralib turadi. O‘zbek shoirasi, ma’rifatparvari va davlat arbobi. „Komila“ va „Maknuna“ taxalluslari bilan ham she’rlar yozgan. Shoira **Uvaysiy** bilan tanishadi, uni muallima sifatida saroyga taklif etadi. Nodiraning turmush yo‘ldoshi Amir Umarxon ham Amiriy taxallusida



ijod qilgan. 1810-yilda akasi Olimxon oʻrniga taxtga chiqqan Umarxon bilan Qoʻqonga keladi. 1822-yil Umarxonning fojeali vafotidan soʻng oʻgʻli **Maʼdalixon** bilan birga Qoʻqon xonligini boshqaradi. Nodiraning madaniyat va obodonchilik ishlarini yoʻlga qoʻyish uchun intilishlarini kuzatgan koʻpgina tarixchi, adib va shoirlar uning faoliyatiga tahsinlar oʻqiganlar, taʼrif va tavsiflar, sheʼriy madhiyalar yozib qoldirganlar. Madrasa, masjid, karvonsaroylar qurdiradi. Ilm ahliga rahnamolik, faqirlarga homiylik qiladi. « ...Shunday qilib, bu ayol aql-u donish va yaxshi fazilatlari bilan yagonayi zamona, «Nodirayi davron» boʻlib tanildi va xalqlar tahsiniga sazovor boʻldi» – deb yozadi zamondoshi Xotif.1842yil **Buxoro amirligi** hukmdori **Amir Nasrulloh** tomonidan qatl etiladi.



Nodiraning sheʼriy merosi bir nechta devonlarining qoʻlyozmalari orqali yetib kelgan. Oʻzbekcha sheʼrlarida Komila va forsiyda Maknuna taxalluslari bilan ham asarlar yaratgan.Uning 10000 misraga yaqin asari yetib kelgan.





kabi ko‘plab janrlardan faol foydalangan.

She’rlarida [Navoiy](#), [Fuzuliy](#), [Bedil](#) an’analarini davom ettirgan. Nodira g‘azallarida firoq, dard iztiroblari samimiy bayon qilingan.

Nodiraning adabiy merosi o‘z g‘oyaviy-badiiy ahamiyati nuqtai nazaridan mumtoz she’riyatning go‘zal namunalaridandir. Uning to‘la bo‘lmagan o‘zbekcha devoni [O‘zbekiston fanlar akademiyasi](#) Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadi. Devonga Nodiraning 109 (yoki 1704 misra) g‘azali kiritilgan. Nodiraning o‘zi yozgan debochada tarjimai holiga oid ba’zi muhim ma’lumotlar berilgan. 19-asrda ko‘chirilgan, hozirgi O‘zbekiston fanlar akademiyasi Tarix muzeyi arxivida saqlanayotgan devonda Nodiraning „Komila“ taxallusi bilan yozgan 19 (328 misra) g‘azali borligi aniqlangan. 1962-yilda Namanganda shoironing mukammal devoni topildi. O‘zbekiston fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyida saqlanayotgan bu devon shoironing merosini to‘liq qamrab olgan, deyish mumkin. Bunda shoira yozgan debocha mukammal berilgan. Devonda shoironing „Nodira“ taxallusi bilan yozgan 180 she’ri jamlangan (shulardan 136 tasi [o‘zbek tilida](#), 44 tasi [tojik tilida](#)). Jumladan, 11 [muhammas](#), 2 [musaddas](#), 1 [musamman](#), 1 [tarji’band](#), 1 [tarkibband](#) va 1 firoqnoma ham bor. O‘zbekiston fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida Nodiraning „Maknuna“ taxallusi bilan yozilgan, 333 [g‘azaldan](#) iborat bir devoni mavjud. Bugungi kunda biz Nodiraning o‘zbek va fors-tojik tillarida yaratgan 10 ming misraga yaqin lirik merosiga egamiz. Nodira she’riyatining asosini lirika tashkil etadi. Nodira muhabbat, sadoqat va vafo kuychisidir. U go‘zallik va sadoqatni, Sharq xotin-qizlarining dard-alamlari, o‘hu fig‘onlarini kuyladi. Shoira o‘zini ishq oynasi deb atar ekan, bu oynada insonning hayotga umid bilan qarashi, ezgu



istaklari va orzusi aks etgan. U muhabbat Alloh tomonidan insonlar qalbiga solingan mangu yog‘du ekanligini kuyladi:

Muhabbatsiz kishi odam emasdur,

Gar odamsan, muhabbat ixtiyor et!

Nodiraning muhabbat tushunchasi chuqur ijtimoiy mazmun kasb etadi. Muhabbat shaxsiy tuyg‘ular doirasidan yuqori ko‘tarilib, odamiylikni chuqur idrok qilish vositasiga aylantiriladi. Nodira insonning eng yuksak fazilati vafodorlikda deb biladi. Shoiraning fors-tojik tilidagi „Mebosh“ radifli g‘azalida vafo mavzui keng doirada qalamga olinadi.

Shoira himmat, sabr, qanoat, nomus, hayo kabi hislatlarni ma’rifat, ya’ni Xudo vasliga erishishni yaqinlashtiruvchi manzillar sifatida qayd etadi, odam ana shu sharaflı hislatlarni o‘z ruhiga mukammal singdirib olishi va uni sobitqadamlik bilan ko‘ngil ganjinasida asramog‘ini obrazli qilib tasvirlaydi. Odamzod shu sifatlardan mahrum bo‘lar ekan, u riyo yo‘liga kirib ketadi.

Nodira o‘z ijodida dunyoviylik bilan bir qatorda tasavvufning naqshbandiya yo‘nalishiga asoslangan bir butunlik orqali insonning jamiyat va tabiatga munosabatini ham, ilohiy muhabbat yo‘lidagi ruhiy dunyosini ham juda go‘zal va jonli misralarda ifodalab beradi. Nodira she’rlarida islom ruhi, tasavvuf ta’limi va hayot falsafasini chuqur idrok etgan holda hayotga hamma vaqt umidbaxsh nigoh bilan qaraydi va undan yaxshilik urug‘ini qidiradi. Nodira saroyda yashasa ham, o‘zini ma’naviy jihatdan baxtiyor hisoblay olmas edi.

Shuning uchun ham u g‘azallaridan birida: „Meni saltanat masnadida ko‘rib, gumon etmang ayshu farogat bilan“, deydi.



Nodira olimlar, shoirlar, ayniqsa, shoiralarni o‘z himoyasiga olgan. Shoira o‘z devonlarining „hamnishin olima afifalar, fozila hamsuhbat sharifalarning maslahatlari va tashabbuslariga ko‘ra jamlangani“ni o‘zbekcha devoniga yozgan so‘zboshisida qayd etib o‘tadi.

Nodira mumtoz she‘riyatning mavjud hamma janrlarida qalam tebratdi. Uning [o‘zbekcha](#), [forsiycha](#) va [tojikcha](#) gazallari aruzning turli vaznlarida 5, 7, 9, 13, hatto 18 baytli hajmda yaratilgan. Shoira g‘azallarining asosiy qismi 7—9 baytlidir. Nodira mumtoz adabiyot an‘analarini qunt va ixlos bilan davom ettirgan. Navoiy, Fuzuliy, Bedil g‘azallariga muxammaslar bog‘lagan. Nodira o‘z g‘azallarida ko‘proq „mukarrar“ (so‘zning takrorlanib kelishi) va „qo‘sh mukarrar“ usullaridan foydalangan. Asarlarida talmeh, majoz, tashbeh, istiora, tazod, tadrij, tashxis, intoq kabi badiiy vositalar mahorat bilan qo‘llangan. Dilshod Otin esa Nodiran «Ilm-odob va nazm osmonining yulduzi, ushshoqlar g‘azalxoni», deb ta‘riflaydi. Nodira o‘z ijodiy faoliyatida o‘tmish adabiyot an‘analariga amal qildi. O‘zidan ilgari o‘tgan, jumladan, Firdavsiy, Nizomiy, Hofiz, Atoyi, Navoiy, Bobur, Fuzuliy, Bedil, Zebuniso kabi so‘z san‘atkorlarining ijodiy mahoratidan o‘rgandi va o‘rnak oldi. Ammo shoira kamolotida « muallimi avval», shubhasiz, Alisher Navoiy edi.


Nodira fors-tojik tilida ham go‘zal, ta‘sirchan she‘rlar yozgan. Ular ham mazmun va badiiy mahorat jihatdan o‘zbek tilidagi g‘azallaridek yuksak darajada yozilgan bo‘lib, shoira ijodini yana ham keng va to‘laroq o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi. Nodira ijodiga bo‘lgan qiziqish shoira xayotlik davridayoq boshlangan. Mashhur shoira Dilshod (1800–1905) Nodiraga maxsus g‘azallar bag‘ishlab, uni „ilm-adabi va nazm osmonining yulduzi, ushshoqlari g‘azalxoni, shakar sochuvchi bulbul“ deb ta‘riflaydi. Nodira g‘azallariga juda ko‘p shoirlar naziralar yozganlar, muxammas bog‘laganlar. O‘zbek adabiyotida va sahnada Nodiraning badiiy obrazi yaratildi. [H. Razzoqovning](#) „Nodira“, Turob To‘laning „Nodirabegim“



musiqali dramalari sahnalashtirildi. [Komil Yormatov](#) va M. Melkumovlarning ssenariysi asosida „Nodirabegim“ filmi yaratildi. Shoira asarlari rus va boshqa chet tillarga tarjima qilingan. Gʻazallari oʻzbek maqomlari va xalq kuylariga solingan. Oʻzbekistonning shahar va qishloqlarida koʻplab koʻchalar, kinoteatr, maktab va kutubxonalar Nodira nomi bilan yuritiladi.

Ijodi A.Qayumov, T.Jalolov, X.Razzoqov, M.Qodirova kabi olimlar tomonidan oʻrganilgan. Nodira ijodiga boʻlgan qiziqish shoira hayotlik davridayoq boshlangan. Qator tarixiy asarlar va tazkiralarda u haqida maʼlumotlar bor. Nodiraning hayot yoʻli va adabiy merosi haqida XX asrda Lutfulla Olim, Fitrat, S. Ayniy, V. Zohidov, V. Abdullayev, M.Qodirova, Oʻtkir Rashid, T. Jalilov kabi olim, shoirlar va ayniqsa, uning oʻz davri adabiyotidagi oʻrni haqida A.Qayumov yaratgan tadqiqotlar diqqatga sazovordir.

[Andijonda](#) shoira nomiga shahar markazidagi shohkoʻchalardan biri, kinoteatr va boshqa daniy n asalar qoʻyilgan.



Oʻzbek adabiyoti tarixida shoirlarning faoliyati Jahon Otin Uvaysiydan boshlanadi, deyish mumkin. Chunki Uvaysiygacha oʻzbek shoirlarining asarlari adabiyotimiz tarixida qayd etilmagan. Qoʻqon adabiy muhitida bir guruh shoirlarga ustozlik qilgan Jahon Otin Uvaysiy oʻzbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotiga oʻzining muhim va benazir maqomi bilan yuksak hissa qoʻshdi. Uvaysiy asli margʻilonlik boʻlib, 1779-yili dunyoga kelganligi, adabiyot va musiqaga ixlosmand maʼrifatli oilada tarbiya topganligi, oʻta savodxon otincha



ayollardan biri sifatida tanilib, keyinchalik Qo‘qonda Nodira bilan yaqin tutinib ijod qilganligi haqida ma’lumotlar bor. Otasi Siddiq bobo ikki tilda she’rlar yozgan. Onasi Chinnibibi otinoyi bo‘lib, akasi Oxunjon hofiz sifatida mashhur edi. U Nodira bilan hamdardlikda Qo‘qonda xon saroyida yashay boshlaydi. 65 yoshligida Marg‘ilonda vafot etadi. Uvaysiy oilada xatsavodini chiqarib, avval xalfa, so‘ngra onasining yonida maktabdorlik qilgan. Akasi Oxunjon hofizdan she’riyat ilmini o‘rgangan, tez orada shoira, otin sifatida tanilgan. Uvaysiy ,ayniqsa, aruzni, muammo (she’rda fikrni yashirib ifodalash) san’atini mukammal egallagan. Qo‘qon adabiy muhiti bilan yaqinlashib, mushoiralarda qatnashgan. Saroyda Nodira va xotin-qizlarga she’riyat ilmidan dars berib, ustozlik qilgan. Uvaysiy she’riyatining mavzu doirasi keng. Uning devonidagi she’rlarida ishq-muhabbat, yor-u diyor, visol va hijron, ona va farzand, dunyo va ilohiyot haqidagi rang-barang mavzular talqin etiladi.

Ko‘z tasadduqdir sening xurshedtal‘at husnunga,

Qaddi dolim ham tasadduq chun alif raftoringa...

Shoira g‘azallarida insoniy muhabbat, sadoqat va vafodorlik g‘oyalariga hamohang inson qadrini, Olloh bergan umrning qadriga yetib iloji boricha yaxshi hayot kechirish, hayot ne‘matlaridan bahramand bo‘lish tuyg‘ularini ulug‘lash muhim o‘rin tutadi. Bunday she’rlardagi inson hayot oshig‘i, orzu-umidlar jarchisi sifatida ko‘rinadi:

Dunyoni bu kun davr ila davroni g‘animat,

Ayvoni jahon bog‘-u gulistoni g‘animat.

Shoiraning ijtimoiy qarashlari, sof niyatlari, orzu-armonlari bilan zamon hamda jamiyat o‘rtasida katta ziddiyat, nomuvofiqlik bor edi. Shuning uchun shoira she’rlarida lirik qahramon zamonadan alam ko‘rgan, ma’nan ezilgan, kulfat chekkan kishi sifatida ham ko‘rinadi. Bunday she’rlarda ijtimoiy adolatsizlikka



qarshi norozilik ohanglari boʻrtib turadi. «Uvaysiymen», «Koʻngul dogʻ oʻldi, dogʻ oʻldi» gʻazallarida shoira qatorida gʻarib fuqaroning dard-u hasratlari ham ifodalangan:

Mehnat-u alamlarga muhtalo Uvaysiymen,

Qay da dard eli boʻIsa, oshino Uvaysiymen...

Yoki yana bir gʻazalida:

Zamona kulfatidin bu koʻngul dogʻ oʻldi, dogʻ oʻldi,

Bu charxi bemuruvatdin bu koʻngul dogʻ oʻldi, dogʻ oʻldi...

Uvaysiy 4 devon tuzganligi maʼlum, lekin bu devonlarning asl qoʻlyozmalari topilmagan. Uvaysiy mumtoz oʻzbek sheʼriyatining barcha janrlarida ijod qilgan. Navoiy, Fuzuliylarning asarlariga muxammaslar bogʻlagan. Uvaysiydan bizga boy meros qolgan va xalqimizning betakror madaniy merosiga aylangan. Uvaysiy sheʼriyati bir qancha qoʻlyozma manbalar orqali yetib kelgan. Qoʻlyozma manbalar va uning chevarasi shoira Magʻziy xotirasidan yozib olingan sheʼrlari asosida uning «Devon» nomlari bilan 1959, 1963 hamda 1983 yillari asarlari nashr etildi. Bu toʻplamda 269 gʻazal, 29 muxammas, 55 musaddas, 1 murabbaʼ oʻrin olgan. Shoiraning «Qissayi shahzoda Hasan», «Qissayi shahzoda Husayn» nomlaridagi diniy-sarguzasht dostonlari hamda «Voqeoti Muhammad Alixon» nomli tarixiy manzumi maʼlum. Shoiraning adabiy merosida 269 gazal, 29 muxammas, 55 musaddas, 1 murabba, chiston, 3 doston, tugallanmagan bir manzuma bor. Ijodining gʻoyaviy mavzu doirasi teran va koʻp qirrali. Shoira adabiyotda taraqqiyparvar namoyandalarning qarashlari asosida maydonga kelgan inson taqdiri, erki va maʼrifatparvarlik gʻoyalarida latif va dilkash asarlar yaratgan, asarlarida insonni eʼzozlash, odamlarni tabiat va xayot noz-neʼmatlaridan bahramand boʻlishga undash, doʻstlik, vafo va sadoqat haqidagi ulugʻvor niyatlarini Qurʼon oyatlari, hadislar va tasavvufiy talqinlar bilan asoslagan holda



ijodiy barkamollikka erishgan. Uning she'rlarida tariqatning talab va qoidalariga taalluqli bo'lgan talqinlar ko'p uchraydi:

Fano mardumlarini sirridin hech kimsa yo'q ogoh,

Qabih guftor mardumdin ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi.

Uvaysiy o'z asarlarida yuksak odamiylikni, shu odamiylikni qalb to'rida avaylovchi vafodor yorni ulug'laydi, uni Quyosh bilan qiyos qiladi. Quyosh har tong ufqdan bosh ko'tarib, o'zining otashin nuri bilan olamga, odamlarga o'z mehr va shafqatini sochadi. Shoir a yor va oftob tashbehlaridan qarshilantirish san'ati orqali eng go'zal tuyg'ular silsilasini yaratadi. Uning lirik qahramoni mushohadakor donishmand, vafoli oshiq. Uning anor haqidagi mashhur chistoni o'zining muhim mazmuni va yuksak badiiyligi bilan shoir a ijodining yorqin bir sahifasi sifatida ko'zga tashlanadi:

Bu na gumbazdur, eshigi, tuynugidin yo'q nishon,

Necha gulgun pok qizlar manzil aylabdur makon?

Tuynugin ochib, alarning holidan olsam xabar,

Yuqorida parda tortug'liq tururlar, bag'ri qon.

Uvaysiy xayotlik davridayoq nafis lirikasi bilan mashhur bo'lgan va zamondoshlarining e'tiborini qozongan. Uvaysiy asarlari o'zining latif mazmuni va dilkash badiiyligi bilan xalq ommasi orasida keng yoyilgan, hofizlar, xonandalar tomonidan maqom va xalq ohanglari yo'lida kuylanib kelinadi. Uning xattotlar tomonidan ko'chirilgan 3 nusxa qo'lyozma devoni O'zbekiston FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik inti va Andijon universiteti kutubxonasida saqlanadi. Uvaysiyning 15.000 misraga yaqin she'riy asarlari mavjud. Uning bir devoni O'R FA ShIda saqlanadi (inv.№ 1837). Unga shoiraning g'azal, muxammas, musaddas, murabba'lari va «Shahzoda Hasan» hamda «Voqeoti Muhammadalixon» (tarixiy asari tugallanmagan). dostonlari kiritilgan. Shoir a



devonining 3 nusxasi topilgan. Uvaysiy hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlar uning asarida, ayrim tazkiralarda yetib kelgan.

«Majmuai shoiron» tazkirasida (1821) ham shoira ijodiga munosabat bildiriladi. Ijodini izchil ilmiy yo'nalishda o'rganish 30-yillarda boshlangan. Uvaysiy ijodi A.Qayumov, T.Jalolov, I.Haqqulov, E.Ibrohimova tomonidan o'rganilgan.

Uvaysiy zamondoshlari orasida shaklan go'zal, mazmunan teran, badiiy barkamol she'rlari bilan o'z iste'dodini va mahoratini namoyon qila olgan. U haqli ravishda o'z zamonasidagi xalq e'tirofiga sazovor bo'lgan, o'z davri shoiralarining yetakchisi darajasidagi ijodkor edi. Uning ijodi an'anaviy mavzularni ishlash, ularning yangi qirralarini ochish va boyitishda bir pog'ona yuqori turadi. Bu o'z davrida ham undan keyin ham e'tirof etilgan. «Uvaysiy she'riyatining g'oyaviy badiiy qudrati va ko'lami bilan qadim yunon shoirasi Sapfo, fransuz shoirasi Margarita Navarli, Sharq she'riyatining malikasi Zebunisolar qatoridagi san'atkor. Uning poeziyasi dunyo badiiy tafakkurida sodir bo'lgan o'ziga xos va xarakterli ijodiy xodisalardan edi», deb yozadi adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqulov



Anbar Otin Farmonqul qizi XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida Qo'qon shahrida yashab ijod etgan o'zbek shoirasidir. U ota tarafidan mashhur o'zbek shoirasi Uvaysiyga qarindosh bo'lgan. Anbar Otin boshqa bir mashhur o'zbek shoirasi Dilshodi Barno (Dilshod otin) maktabida tahsil olgan. Sakkiz yoshidan Alisher Navoiy g'azallarini sevib o'rgangan va keyinchalik ham



ijodda birinchi ustozi deb hisoblagan. Zamondoshlari Muqimiy, Furqat, Zavqiylar bilan tanish bo'lgan. Anbar Otin o'zbek va tojik tillarida ijod qilgan. Ijodda ko'proq Uvaysiyga ergashgan. Anbar Otinning ilk she'rlarida sof va samimiy tuyg'ular tarannum etilgan bo'lsa, keyinchalik uning ijodida zamondan shikoyat qilish yetakchi mavzuga aylandi. Anbar Otin umrining so'nggi yillarida o'zbekcha she'rlardan iborat devon tuzgan. 1966-yilda Tojikistonda shoiraning yana bir kichik she'riy to'plami topilgan bo'lib, undagi she'rlar "xurufi xijo" uslubida yozilgan. Anbar Otin uzoq yillik xastalikdan so'ng 1906-yilda vafot etadi.

Dilshod Otin 1800-yil O'ratepada tug'ilgan. Otasi Rahmonqul So'fi Istaravshan shoiri bo'lib, undan savod o'rgangan. 1812-yili Umarxon O'ratepani bosib oladi va boshqa asirlar kabi Dilshod Otinni ham Qo'qonga olib keladi. Umarxon saroyidan qutilgan, Dilshod Otin Toshmaxdum ismli odamning xonadonidan panohtopadi. So'ng o'zbek tilini mukammal o'rganadi va Dilshodi Barno taxallusi ostida tojik va o'zbek tillarida g'azallar yozadi.

Dilshod Otin g'azal, muxammas, masaddas, chiston va boshqalar bilan birga xotiranomalar ham yaratgan. Uning 91 ta o'zbekcha va 51 ta tojikcha she'ri, „Tarixi muhojiron“ („Muhojirlar tarixi“) badiiy-tarixiy asarining o'zbekcha va tojikcha 3 qo'lyozma nusxasi („Tazkirai Barno“, „Sabot ul-bashar maa tarixi muhojiron“ – „Inson matonati va muhojirlar tarixi“, „Muntaxab alash'ori Barno“ – „Barnoning tanlangan she'rlari“) bizgacha yetib kelgan. Bularda o'zaro urushlar, xalqning turmush sharoiti va boshqa ijtimoiy-siyosiy voqealar o'z ifodasini topgan.

Turkistonni chor Rossiyasi bosib olishiga bo'lgan munosabatda shoira zamondoshlaridan ilgarilab, bu hodisaning barcha oqibatlarini to'g'ri tushungan. Shu jihatdan, Dilshod Otin she'riyati xalq taqdirining badiiy yilnomasi darajasiga ko'tarildi. Shu bilan birga shoira baxtiyor zamon, yaxshi kunlar kelishiga ishondi



(„Bu jabru zulmat albat muvaqqat...“, „Farg‘ona“ va boshqalar), turkistonliklarni do‘st-inoq yashashga undadi („Xaloyiq, borsangiz...“, „Tarixi muxosara“ va boshqalar). Dilshod Otin lirikasida muhabbat va sadoqat mavzusi, vatan va inson ozodligi masalasi uyg‘unlashib ketgan („Sochim sunbul deyurlar...“, „Falakda suzuvchi oy...“ va boshqalar).

Dilshod Otinning „Tarixi muhojiron“ asarida XIX asr Qo‘qon xonligidagi tarixiy, ijtimoiy-siyosiy voqealar aks etgan. Ayollarni ma’rifatli, erkin, jamiyatning teng huquqli a’zolari bo‘lishga chorlagan. Shuningdek, asarda O‘ratepa va Qo‘qonda yashagan 30 dan ortiq shoir va shoirlar ijodi haqida ma’lumot keltirilgan. Dilshod Otin asarlari qo‘lyozmasi O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanadi (inv. № 1207). Asarlari o‘zbek va tojik tillarida nashr qilingan.

O‘zbek va tojik tillarida ijod qilgan zullisonayn shoir Dilshod Otin 1907-yilda Qo‘qonda vafot etgan





Foydalangan adabiyotlar:

1. Komila -Nodira. -T. : 2002
2. I.Haqqulov. Uvaysiy she‘riyati. –T. 2020
3. Anbar Otin. She‘rlar. Risola. [Toshkent](#)
4. Ziyo. net.uz